



**NAMANGAN VILOYATIDA AVTOTEXNIK XIZMATLARINI TASHKIL  
ETILISHI VA SAMARADORLIGINI MARKETING STRATEGIYALARI  
ASOSIDA OSHIRISH YO'LLARI**

**Umaraliyev Diyorbek Shukirali o'g'li**

*Namangan Davlat texnika universiteti 2- bosqichida magistranti*

**Annotatsiya.** *Ushbu tezisda Namangan viloyatida avtotexnik xizmatlarni tashkil etilishining hozirgi holati tahlil qilindi hamda ularning samaradorligini oshirishda marketing strategiyalarining roli va amaliy yo'llari ko'rib o'tiladi. Tadqiqot viloyat statistik ma'lumotlari, mahalliy avtoservis korxonalarining joylashuvi va xizmat sifati muammolariga asoslandi. Xalqaro va mahalliy tajribalar asosida takliflar berib o'tilgan. Shu bilan birga ishdagi asosiy e'tibor raqamli marketing, mijozlarni saqlab qolish va joylashuvni optimallashtirishga qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** *avtotexnik xizmatlar, avtoservis, marketing strategiyalari, Namangan viloyati, xizmat sifati, raqamli marketing, mijoz sodiqligi, joylashuv optimallashtirish.*

**Kirish.** Namangan viloyati O'zbekistonning shimoliy hududlaridan biri sifatida aholisi soni va iqtisodiy faolligi bilan muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda avtomobillar sonining keskin o'sishi avtotexnik xizmatlarga talabni keskin ortishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, viloyat statistika ma'lumotlariga ko'ra, transport xizmatlari hajmi doimiy ravishda o'sib bormoqda. Misol sifatida ko'rishimiz mumkinki, 2025-yil yanvar-sentabr oylarida transport xizmatlari sezilarli o'sishi kuzatilgan[2]. Biroq, avtoservis korxonalari joylashuvi tartibsiz, xizmat sifati va marketing faoliyati yetarli darajada qoniqarli emas. Bu mijozlar qoniqishini pasayishi va bozor raqobatini zaiflashishiga sabab bo'ladi. Tadqiqot mavzusi aynan shu muammolarni hal qilishga qaratilgan bo'lib, u o'z ichiga marketing strategiyalari yordamida avtotexnik xizmatlar tashkil etilishini takomillashtirish va samaradorligini oshirish masalalarini qamrab olgan.

Tadqiqot maqsadi

Namangan viloyati sharoitida samarali marketing yondashuvlarini taklif etishdan iboratdir. Hamda holatni tahlil qilish, xalqaro va mahalliy tajribalarni o'rganish, amaliy takliflar ishlab chiqish kabi vazifalarni o'z oldiga qo'ygan.

**Asosiy qism.** Namangan shahrida avtoservis korxonalari asosan markaziy va chekka hududlarda joylashgan. Ko'pincha ularning joylashuvi tasodifiy bo'lib, bu transport oqimi va mijozlar uchun qulaylikni pasaytiradi[1]. Aksariyat korxonalar xususiy bo'lib, zamonaviy talablarga (texnik baza, malakali mutaxassislar, sifat standartlari) to'liq javob bermaydi. Viloyat statistikasiga ko'ra, avtotransport xizmatlari umumiy xizmatlar hajmining muhim qismini tashkil etadi, ammo norasmiy sektor ulushi yuqori[2]. Talab o'sishiga asosiy sabablar sifatida avtomobillar parki yangilanishi, aholining daromadi o'sishi va murakkab texnologiyali avtomobillarning ko'payishini ko'rishimiz mumkin.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Asosiy muammolar quyidagilar:

1. Xizmat sifati va bajarish muddatlarining pastligi;
2. Marketingning zaifligi (onlayn mavjudlik, reklama va mijozlar bilan aloqa yetarli emas)[3];
3. Raqobatning past darajasi va mijozlar sodiqligining yetishmasligi.

Xususan, xizmatlar marketingida dunyoga mashhur mutaxassis Philip Kotlarning tamoyillari asosiy o‘rin tutadi. U har bir biznesni xizmat biznesi deb hisoblaydi va mijoz qiymatini yaratish, sifat, xizmat hamda umumiy qiymatni ta’kidlaydi[4]. Avtoservis xizmatlarida bu holat mijoz ehtiyojlarini chuqur tushunish va uzoq muddatli munosabatlarni qurishni anglatadi. Zamonaviy tajribada Raqamli marketing va SEO ya’ni, Google Business Profile optimallashtirish, mijozlarni saqlab qolish uchun xizmatdan keyin e-slatmalar, sodiqlik dasturlari, sharhlar bilan ishlash, ijtimoiy tarmoqlar va kontent-marketingda foydali maslahatlar (mavsumiy texnik xizmat, shinalar almashinuvi), mijozlar fotosuratlar va sharhlari bilan ishlash, joylashuv va brending uchun esa qulay joy tanlash, sifat kafolati va zamonaviy ko‘rinish berish kabi strategiyalar samarali ekanligi isbotlangan. Namangan sharoitida bu yondashuvlarni mahalliy madaniyat va tilga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Samaradorlikni oshirish yo‘llari va amaliy takliflar ayniqsa, bu takliflar asosan Namangan viloyatida kompleks yondashuvni joriy etish uchun tavsiya etiladi: Birinchidan, joylashuvni optimallashtirish bunda shahar bosh rejasiga muvofiq aholi zich joylarda va asosiy yo‘llar chetida avtoservis klasterlarini shakllantirish kerak. Bu xarajatlarni kamaytiradi va mijozlarga qulaylik yaratadi[1]. Ikkinchidan, sifat va kadrlar malaksiga e’tibor qaratish bunda xodimlar malakasini oshirish kurslari, sertifikatlash va zamonaviy diagnostika uskunalari joriy etish taklif etiladi. Uchinchidan, marketing kompleksini joriy etish ham samarali hisoblanadi. Bunda:

1. Veb-sayt yoki Telegram-bot orqali onlayn bron qilish;
2. CRM tizimi yordamida mijozlar bazasini boshqarish;
3. Google va ijtimoiy tarmoqlarda sharhlar yig‘ish;
4. Mahalliy hamkorliklar (korxonalar, dilerlar bilan)[3].

Bunday choralar o‘rtacha chekni va mijozlar sonini oshirib, samaradorlikni sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.

**Xulosa.** Xulosa sifatida ayta olamizki, Namangan viloyatida avtotexnik xizmatlarini rivojlantirishda marketing strategiyalari hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Biroq bir qancha muammolar ham mavjud albatta, bular- joylashuvning tartibsizligi, xizmat sifatining pastligi va marketingning zaifligi. Bu kabi muammolar albatta viloyat iqtisodiyotiga o‘zining salbiy ta’sirisini ko‘rsatib kelmoqda. Buning oldini olish uchun yuqorida taklif etilgan yondashuvlar ya’ni, raqamli vositalar, mijozga yo‘naltirilgan xizmat va infratuzilmani takomillashtirish kabilarni yo‘lga qo‘yish orqali bu sohani yangi bosqichga ko‘tarish mumkin. Natijada, nafaqat korxonalar daromadi oshadi, balki aholiga qulay va sifatli xizmat ko‘rsatiladi, yo‘l-transport xavfsizligi yaxshilanadi hamda viloyat iqtisodiyotining xizmatlar sohasidagi ulushi ortadi. Kelgusida ushbu mavzuda chuqurroq empirik tadqiqotlar o‘tkazish, pilot loyihalarni



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



amalga oshirish va viloyat rahbariyati bilan hamkorlikni kuchaytirish foydali bo‘ladi. Bu choralar avtoservis sohasini zamonaviy talablarga moslashtirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdusattorov N.A. Namangan shahrida avtoservis korxonalarini joylashuvi va ularning samaradorligi masalalari // Ilmiy jurnal “Mexanika va texnologiyalar”. 2024. № 3.
2. Namangan viloyati statistika boshqarmasi. 2025 yil yanvar-sentabr oylarida transport va aloqa xizmatlari ko‘rsatkichlari. Namangan, 2025.
3. Ergashxodjayeva Sh.J. va boshq. Xizmatlar marketingi: O‘quv qo‘llanma. Toshkent: TDIU nashriyoti, 2022.
4. Kotler, Ph., & Keller, K. L. (2016). Marketing Management (15th ed.). Pearson Education.

